


**MODUL / FAN
SILLABUSI**
Biologiya fakulteti
60510100-
Biologiya (turlar
bo'yicha)
1-bosqich talabalari
uchun



Fan nomi:	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	O'TSQM1003
Yil:	2021-2022
Semestr:	1
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrda ajratilgan soatlar:	30
Ma'ruza	-
Amaliy mashg'ulotlar	14
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	16
Kredit miqdori:	1
Baholash shakli:	Sinov
Fan tili:	o'zbek

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning yangi alifbo imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va mutaxassisligiga oid terminlarni bilishining ilmiy – nazariy asoslarini, hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llay olishni, ilmiy va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Fanning vazifasi – Talabalarni imlo qoidalari, ish yuritish hamda mutaxassislik terminologiyasi bilan tanishtirish.
FM2	Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan unumli foydalanish imkoniyatini beradi.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi sohasidagi asosiy muammolarni tushunishi;

2.	O'z ixtisosligi doirasida muayyan tadqiqot sohasining ob'ektlari va jarayonlariga nisbatan shaxsiy ilmiy filologik munosabatlar;
3.	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi muammolari va ularni hal qilish yo'llari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i> ;
4.	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining tushunchaviy apparati;
5.	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining metod va usullari;
6.	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining ilmiy-tadqiqot mavzularini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i> ;
7.	Badiiy-lisoniy tahlil etish;
8.	O'zbek tilining sohada qo'llanilishiga oid nazariy ma'lumotlarni yozib olish, to'plash va nashrga tayyorlash;

Ta'lim natijalari (TN)	
<i>Bilimlar jihatidan:</i>	
TN 1	Ish yuritish va soha terminologiyasi haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i> ;
TN 2	Hujjatlarni to'g'ri yoza olish va terminlarni o'rinli qo'llay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i> ;
TN 3	Ish qog'ozlarini imlo xatolarsiz, terminlarni esa o'z o'rnida ishlata olish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i> .
TN 4	Berilgan mashqlar, topshiriqlarni bajarish asosida nutq jarayonida vaziyatdan kelib chiqib fikr almashish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: amaliy (A)	
A1	Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Davlat tili haqidagi qonun, va uning ijrosi.
A2	O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: unli va undosh tovushlar imlosi. Asos va qo'shimchalar imlosi. Bosh harflar imlosi. O'zbek tilida qo'shib yozish. Adabiy til me'yorlari. Adabiy til uslublari.
A3	O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish qoidalari, bo'g'in ko'chirish qoidalari.
A4	Terminologiya. Termin va so'z. Sohaviy terminlar ustida ishlash.
A5	Ish yuritish tili va uslubi. Hujjat turlari va xususiyatlari: ariza, tushuntirish xati, bildirishnoma.
A6	Hujjat turlari va xususiyatlari: tarjimai hol, tavsifnoma, tavsiyanoma.
A7	Hujjat turlari va xususiyatlari: tilxat, hisobot, shartnoma, ishonch xati.
Mashg'ulotlar shakli: mustaqil ta'lim(MT)	
M1	"Davlat tili haqida"gi qonunning mazmun-mohiyatini o'zlashtirish.

M2	O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini o'zlashtirish.
M3	Hujjatchilik tarixi. O'zbekiston Respublikasida hujjatchilikning takomillashuvi.
M4	Tashkiliy hujjatlarni o'rganish, ularga namunalar yozish.
M5	Farmoyish hujjatlarni o'rganish, ularga namunalar yozish.
M6	Ma'lumot-axborot hujjatlari.
M7	Xizmat yozishmalari.
M8	So'z va termin. Terminologiya fani va uning rivojlanishi. Mutaxassislikka doir terminlar ustida ishlash.

Asosiy adabiyotlar:

1.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850 рақамли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони //Халқ сўзи, 2019 йил 22 октябрь.
2.	Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.
3.	Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. – T.: O'qituvchi, 2003.
4.	Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi. INTERNETdagi manzili: www.samdu.uz/files/web/index.htm
5.	Васикалар тўплами. – Т.: Фан, 1982.
6.	Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi: Boltayev M. – Samarqand: SamDU, 2007.
7.	Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
8.	Sanaqulov U., Abdiyev M., Qurbonov A. O'zbek tilida ish yuritish asoslari.- Samarqand, 2014.
9.	Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11 – 12-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996;
10.	Давлат тилида иш юритиш, ҳужжатчилик ва атамашуносликдан ўқув иш дастури. – Самарқанд: СамДУ, 1998.
11.	Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
12.	Абдиев М. Сохавий терминологиянинг систем таҳлили муаммолари. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.
13.	Мадвалиев А. Ўзбек тили терминологияси ва лексикографияси масалалари.-Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017.

Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar:	
1.	O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. O'zbek tilining imlo lug'ati. Tuzuvchilar – Hojiyev A., Rahmatullayev Sh. – T.: O'qituvchi, 1996, 6-27-betlar.
2.	Имомова Т.З., Тухватуллина Л.А. Иш қоғозлари қандай ёзилади? – Тошкент, 1992.
3.	Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.
4.	To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.
5.	Abdiyev M., Umarov Y. Ish yuritish. – Samarqand, 2018.
6.	Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Ўзбек тилида иш юритиш атамаларини тартибга солиш ҳақида // Ўзбек тили атамашунослиги. Ахборот. 5 – 6-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.40-43
7.	Chiniqulov N. Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari - Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019.
8.	Садинова Н. Иш юритиш терминларининг қисқача изоҳли лугати.-Тошкент, 2019.
9.	Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услубининг таракқиёти.-Тошкент, 2020.
10.	Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан.– Тошкент: Фан, 1979.
11.	Шамсиддинов К. Умумистеъмолдаги сўзлардан лексик-семантик усул билан ясалган терминлар ва уларни тартибга солиш // Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари. –Тошкент, 1991, 136-151 бетлар
12.	Маҳкамов Н. Ўзбек тили терминологиясида жуфт терминлар ва уларни тартибга солиш (физика ва техника терминлари мисолида) // Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари.-Тошкент, 1991, 68- 80 бет.
13.	Бектемиров Х., Бегматов Э.Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент, 2002.

FANDAN BAHOLASH MEZONI VA TARTIBI

«O'zbek tilining sohada qo'llanilishi» fanidan talabalar bilimni baholash «Samarqand davlat universitetida ta'limning kredit tizimi sharoitlarida talabalar bilimni nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risida yo'riqnoma»ga asosan amalga oshiriladi.

Fan uchun ajratilgan jami kredit (soat) miqdori: 1 (30 soat)


Nazorat turi	Ajratilgan jami ball	Nazorat (topshiriq) shakli	Ballarning taqsimlanishi	Saralash bali
--------------	----------------------	----------------------------	--------------------------	---------------

Oraliq nazorat	50 ball	Nazorat ishi: 1. Yozma ish (4 ta savol)	20 ball: 20 ball;	30 ball
		2. Talaba faoliyati (amaliyot va seminar darslaridagi)	15 ball (mashg'ulotlar soniga bo'linadi)	
		3. Mustaqil ish	15 ball (topshiriqlar soniga bo'linadi)	
Yakuniy nazorat	50 ball	Yozma ish (5 ta savol)	50 ball (har bir savolga 10 balldan)	30 ball
		yoki Test (50 ta savol)	50 ball (har bir savolga 1 balldan)	

Fan bo'yicha yuqorida keltirilgan nazoratlarda to'plangan reyting umumlashtiriladi hamda yakunda ballar 5 baholik tizimga quyidagicha konvertatsiya qilinadi:

- 87-100 ball – 5 (a'lo);
- 73-86 ball – 4 (yaxshi);
- 60-72 ball – 3 (qoniqarli);
- 0-59 ball – 2 (qoniqarsiz).

Dastur muallifi:	M.N.Narziyeva
E-mail:	mamuranarziyeva164@gmail.com
Tashkilot:	Samarqand davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası.

Kafedra mudiri: 

prof.I.K.Mirzayev


Mazkur modul biologiya fakulteti kengashining 2021-yil 20-iyun dagi 10-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Kengash raisi: 

X.Keldiyorov

“Kelishilgan”

SamDU o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:

 B.S.Aliqulov
2021-yil